

O‘R FVV Gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir qilish va boshqaruv xizmati

asosiy vazifa va funksiyasi

1. gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatish uchun o'tkaziladigan tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida himoya hududlarida gidrometeorologik jarayonlarni monitoring qilish;

qishloq xo'jaligi ekinlarini (mahsulotlarini) do'l urishidan himoya qilishga qaratilgan gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatish tadbirlarini olib borish;

GJTK texnik vositalarini (do'lga qarshi mahsulotlar, uchirish qurilmalari va meteorologik radiolokatorlar) xavfli do'lli holatlar va jarayonlarni bartaraf etish maqsadida ishonchli va to'g'ri ishlashtirishini ta'minlab berish;

do'lli jarayonlar va holatlarni o'ziga xosligini o'rganish;

gidrometeorologik jarayonlarga tasir ko'rsatishning texnik vositalari va ta'sir ko'rsatish usullarini samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot va eksperimental ishlarga va dala sinovlariga, hamda ta'sir ko'rsatish ishlarining yangi turlarida ishtirok etish;

gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatish operatsiyalari (sinovlari, ishlari) o'tkaziladigan hududlarda havo bo'shlig'i xavfsizligini, aholining va moddiy vositalarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish.

Gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatishni markaziy boshqaruv xizmati (GJTK MBX) O'R FVVning tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

2. GJTK organlari faoliyati boshqaruvini ta'minlash, ularni o'zaro va boshqa tashkilotlar (bo'linmalar) bilan hamkorligini tashkillashtirish;

gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish, xavfli gidrometeorologik jarayonlarga samarasiz ta'sir ko'rsatish yoki ta'sir ko'rsatmaslik oqibatida yuzaga kelgan qishloq xo'jaligi ekinlari paymolini (zararni) baholashda ishtirok etish;

do'lga qarshi ishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

havo bo'shlig'idan foydalanishni yagona boshqaruv Bosh markazi bilan birgalikda himoya hududlaridan aviasiyaning xavfsiz uchib o'tishini ta'minlash buyicha tadbirlarni tashkillashtirish, talluqli yo'riqnomalarni ishlab chiqish va GJTK organlarida uning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

do'lga qarshi mahsulotlarni sotib olish uchun, hamda MRL-5 radiolokatorlarida va radiolokatsiya majmualarida ta'mirlash va reglament ishlarini o'tkazish uchun kerakli mablag'ni va moddiy sarf harajatni aniqlash;

gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatish faoliyatiga talluqli bo'lgan ta'sir ko'rsatish vositalarini sotib olish uchun kerakli hisob-kitoblarni (aniqliklarni) tuzish, ularni boshqa tashkilotlar va vazirliklar bilan kelishuvini amalga oshirish;

gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatishni amalga oshirish va texnik vositalardan (do'lga qarshi mahsulotlar, uchirish qurilmalari va meteorologik radiolokatorlar) foydalanish buyicha boshqaruv hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, hamda GJTK organlarida ulardan foydalanilishini nazorat qilish;

GJTK organlari xizmatchilarining professional sifatlarini o'rganish, kadrlar masalasiga talluqli ma'lumotlarni tayyorlash.